

“TASDIQLANGAN”

AT “Aloqabank”
aksiyadorlar yillik
umumiy yig‘ilishining
2026-yil 25-iyundagi
1 – sonli bayonnomasi

Kuzatuv kengashi Raisi



Sh.X. Shermatov

“RO‘YXATGA OLINGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

2026-yil “10” *iyul*
48 – son

Raisining birinchi o‘rinbosari



N.N. Saydullayev

**“AKSIYADORLIK TIJORAT “ALOQABANK”
USTAVI”**

“AKSIYADORLIK TIJORAT “ALOQABANK” USTAVI”

MUNDARIJA

I. Umumiy qoidalar.....	3
II. Bank operatsiyalari va bank uchun taqiqlangan yoki cheklangan faoliyat.....	4
III. Bank ustav kapitali va boshqa mablag'lari.....	5
IV. Bank hisobotlarini tuzish va sof foydani taqsimlash.....	8
V. Aksiyadorlarning huquqlari va majburiyatlari.....	9
VI. Bank boshqaruv organlari.....	11
VII. Javobgarlik.....	21
VIII. Bank tarkibiy bo'linmalari.....	22
IX. Bank faoliyatini nazorat qilish tartibi.....	22
X. Bankni qayta tashkil etish va tugatish.....	23
XI. Bank Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.....	23

Aksiyadorlik tijorat "Aloqabank" O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuniga muvofiq va Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish, rekonstruksiya qilish va ularning ish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 502-son qaroriga asosan telekommunikatsiya tarmog'ini modernizatsiya qilish va rivojlantirishni mablag' bilan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash maqsadida tashkil qilingan.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Aksiyadorlik tijorat "Aloqabank" uning ta'sischi-lari o'rtasida imzolangan 1994-yil 30-dekabrdagi ta'sis shartnomasiga ko'ra tashkil qilingan bo'lib, o'zining tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra aksiyadorlik jamiyatidir.

1.2. Bankning nomi:

davlat tilida:

lotin yozuvi asosida – Aksiyadorlik tijorat "Aloqabank";

qisqartirilgan nomi – AT "Aloqabank";

kirill yozuvi asosida – Акциядорлик тижорат "Алоқабанк";

qisqartirilgan nomi – АТ "Алоқабанк";

rus tilida:

Акционерно-коммерческий "Алокабанк";

qisqartirilgan nomi – АК "Алокабанк";

ingliz tilida:

Joint-Stock Commercial "Aloqabank";

qisqartirilgan nomi – JSC "Aloqabank".

1.3. AT "Aloqabank" (bundan buyon matnda "Bank" deb yuritiladi) o'z faoliyatini "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, boshqa qonun va qonunosti hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlariga va mazkur Ustavga rioya qilgan holda amalga oshiradi.

1.4. Bank jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etadi.

1.5. Bankning faoliyat muddati cheklanmagan holda tashkil etilgan bo'lib, u yuridik shaxs hisoblanadi va o'z majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulki bilan javobgar bo'ladi. Bank, qonunchilikka muvofiq, mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni amalga oshiradi, tegishli sudlarda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

1.6. Bank o'zining Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazlari (bundan buyon matnda "HKXKM" deb yuritiladi) va Kompleks xizmatlar ko'rsatish markazlari (bundan buyon matnda "KXKM" deb yuritiladi) bilan birgalikda yagona yuridik shaxs bo'lib, u mustaqil balansda hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega. Bank davlatning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi va davlat Bankning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydi. Bank o'z HKXKM/KXKMlarining majburiyatlari yuzasidan javobgar hisoblanadi.

Aksiyadorlar Bankning majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi va uning faoliyati bilan bog'liq zararlarning o'rnini o'zlariga tegishli aksiyalar qiymati doirasida qoplash tavakkalchiligini o'z zimmasiga oladi.

1.7. Bank o'zining nomi davlat tilida to'liq yozilgan hamda joylashgan yeri ko'rsatilgan dumaloq muhriga ega bo'ladi. Bank va uning tarkibiy bo'linmalari muhrlarida Bankning nomi davlat tiliga qo'shimcha ravishda rus tilida yoki ingliz tilida ko'rsatilishi mumkin. Bank o'z nomidan foydalanishning mutlaq huquqiga ega.

Bank o'zining nomi yozilgan tamg'alari va blankalariga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo'ladi.

1.8. Bankning joylashgan joyi va pochta manzili: 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Olmazor MFY, O'qchi ko'chasi, 2-uy.

Bankning elektron pochta manzili: info@alogabank.uz

II. BANK OPERATSIYALARI VA BANK UCHUN TAQIQLANGAN YOKI CHEKLANGAN FAOLIYAT

2.1. Bank O'zbekiston Respublikasida o'z faoliyatini Markaziy bank tomonidan berilgan, bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya asosida amalga oshiradi.

2.2. Bank bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug'urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

2.3. Bank tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

2.3.1. pul mablag'larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;

2.3.2. to'lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;

2.3.3. jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;

2.3.4. kreditlarni ularning qaytarilishi, foizlilik va muddatlilik sharti bilan o'z nomidan o'zining mablag'lari hamda jalb etilgan mablag'lar hisobidan berish;

2.3.5. chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;

2.3.6. jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha pul mablag'larini va boshqa mol-mulkni ishonchli boshqarish;

2.3.7. inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko'rsatish;

2.3.8. uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;

2.3.9. pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) shartnomasiga asosan talab qilish huquqini olish yoki boshqa shaxsga berish;

2.3.10. qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog'ozlarni

boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

2.3.11. affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas'ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo'lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;

2.3.12. qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;

2.3.13. hosilaviy moliya vositalar (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

2.3.14. hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;

2.3.15. lizing berish;

2.3.16. qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;

2.3.17. moliyaviy operatsiyalar bilan bog'liq maslahat xizmatlari ko'rsatish;

2.3.18. aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;

2.3.19. elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to'lash;

2.3.20. bank kartalarini berish va to'lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko'rsatish;

2.3.21. ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha xizmatlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ bilan elektron axborot almashish orqali ko'rsatish.

2.4. Bank banklar va bank faoliyatiga oid qonunchilikka muvofiq boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.

2.5. Bank bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyada ko'rsatilmagan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishga haqli emas.

2.6. Bank amaldagi qonunchilikka muvofiq loyihalarni davlat byudjetining mablag'lari va boshqa markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar hisobidan moliyalashtirishi mumkin.

2.7. Bank o'z operatsiyalarini amalga oshirish va pul mablag'larini saqlash uchun O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida, rezident va norezident banklarida so'mda va chet el valyutasida vakillik hisobvaraqlar ochadi.

2.8. Bank o'z mablag'laridan, yuridik va jismoniy shaxslarning barcha shakldagi hisobvaraqlaridagi mablag'laridan, boshqa banklardan jalb qilingan depozitlar va kreditlardan, amaliyot (operatsion) yili davomida taqsimlanmagan foydadan kreditlash, investitsiyalash va banklararo depozitlar resurslari sifatida foydalanishi mumkin.

2.9. Bankka yuridik shaxslarni tashkil etish va (yoki) yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlarni yoki aksiyalarni olish taqiqlanadi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

III. BANK USTAV KAPITALI VA BOSHQA MABLAG'LARI

3.1. Bankning ustav kapitali O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida shakllantiriladi hamda Bank muassislari va aksiyadorlari kiritgan pul mablag'laridan yoki davlatning qimmatli qog'ozlaridan tashkil topadi, bundan quyidagi hollar mustasno:

3.1.1. Bank aksiyalarini Bankning kreditorlari orasida joylashtirish va Bankning kreditorlar oldidagi pul majburiyatlari bo'yicha har qanday huquqlarini (talablarini) hisobga olish yo'li bilan ularning haqini to'lash;

3.1.2. qimmatli qog'ozlarni Bank aksiyalariga ayirboshlash;

3.1.3. Bankning joylashtirilgan bir turdagi aksiyalarini Bankning boshqa turdagi aksiyalariga almashtirish.

3.2. Bankning ustav kapitalini shakllantirish uchun kreditga, garovga olingan mablag'lardan, shuningdek majburiyat yuklatilgan boshqa mablag'lardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

3.3. Bank tomonidan chiqarilgan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish amaldagi qonun hujjatlariga hamda aksiyalar chiqarilishi to'g'risidagi qarorga muvofiq ochiq yoki yopiq obuna usulida amalga oshiriladi. Aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlarni joylashtirish usuli (ochiq yoki yopiq obuna) Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilanadi.

3.4. Barcha turdagi bank aksiyalarining nominal qiymati bir xil bo'lib, 1 (bir) so'mni tashkil qiladi.

3.5. Bank ustav kapitali **2 832 883 296 965** (ikki trillion sakkiz yuz o'ttiz ikki milliard sakkiz yuz sakson uch million ikki yuz to'qson olti ming to'qqiz yuz oltmish besh) so'mni tashkil etib, quyidagi aksiyalarga taqsimlangan:

3.5.1. egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar – **2 829 193 296 965** (ikki trillion sakkiz yuz yigirma to'qqiz milliard bir yuz to'qson uch million ikki yuz to'qson olti ming to'qqiz yuz oltmish besh) dona, nominal qiymati bo'yicha jami summasi **2 829 193 296 965** (ikki trillion sakkiz yuz yigirma to'qqiz milliard bir yuz to'qson uch million ikki yuz to'qson olti ming to'qqiz yuz oltmish besh) so'm, jami aksiyalarning 99,87 foizi;

3.5.2. egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar – **3 690 000 000** (uch milliard olti yuz to'qson million) dona, nominal qiymati bo'yicha jami summasi **3 690 000 000** (uch milliard olti yuz to'qson million) so'm, jami aksiyalarning 0,13 foizi.

3.6. Ustav kapitalini oshirish maqsadida Bank chiqarishi mumkin bo'lgan e'lon qilingan aksiyalar soni **1 860 360 550 268** (bir trillion sakkiz yuz oltmish milliard uch yuz oltmish million besh yuz ellik ming ikki yuz oltmish sakkiz) dona donani tashkil etadi, shu jumladan:

3.6.1. egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar soni – **1 859 872 550 268** (bir trillion sakkiz yuz ellik to'qqiz milliard sakkiz yuz yetmish ikki million besh yuz ellik ming ikki yuz oltmish sakkiz) dona;

3.6.2. egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar soni – **488 000 000** (to'rt yuz sakson sakkiz million) dona.

3.7. Bankning ustav kapitalini ko'paytirish va kamaytirish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

3.7.1. Bankning ustav kapitali qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

Qo'shimcha aksiyalar Bank tomonidan ushbu Ustavda belgilangan e'lon qilingan aksiyalar soni doirasidagina joylashtirilishi mumkin.

Bank Ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtiriladigan qo'shimcha oddiy va (yoki) imtiyozli aksiyalarning soni, ularni joylashtirish muddatlari hamda shartlari belgilangan bo'lishi kerak.

Bankning ustav kapitalini ko'paytirish joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning nominal qiymati miqdorida ro'yxatdan o'tkaziladi. Bunda Bank Ustavida ko'rsatilgan e'lon

qilingan muayyan turdagi aksiyalarning soni ushbu turdagi joylashtirilgan qo'shimcha aksiyalarning soniga qisqartirilishi kerak.

Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan qo'shimcha aksiyalarni chiqarish haqidagi qaror Bankning ustav kapitalini ko'paytirish to'g'risidagi qaror hisoblanadi.

Bankning ustav kapitalini ko'paytirish jalb qilingan investitsiyalar, Bankning o'z kapitali va hisoblangan dividendlar hisobidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Bankning ustav kapitalini uning o'z kapitali hisobidan ko'paytirishda qo'shimcha aksiyalar barcha aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi. Bunda har bir aksiyadorga qaysi turdagi aksiyalar tegishli bo'lsa, ayni o'sha turdagi aksiyalar unga tegishli aksiyalar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Bankning ustav kapitali ko'paytirilishi natijasida ko'paytirish summasining bitta aksiyaning nominal qiymatiga muvofiqligi ta'minlanmaydigan bo'lsa, Bankning – ustav kapitalini ko'paytirishga yo'lga qo'yilmaydi.

3.7.2. Bankning ustav kapitali aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki aksiyalarning umumiy sonini qisqartirish yo'li bilan, shu jumladan, aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilgan holda Bank tomonidan aksiyalarni sotib olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

Bankning ustav kapitalini aksiyalarning bir qismini olish va bekor qilish yo'li bilan kamaytirishga yo'l qo'yiladi.

Agar Bank ustav kapitali kamaytirilishi natijasida uning miqdori Bank Ustavidagi tegishli o'zgartirishlarni ro'yxatga olish sanasida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdoridan kamayib ketsa, Bank ustav kapitali miqdorini kamaytirishga haqli emas.

Bankning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi va Bank Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish haqidagi qarorlar Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Bankning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilinayotganda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Ustav kapitalini kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilaydi.

Bank o'zi joylashtirgan aksiyalarni Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishining bank ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qaroriga muvofiq, joylashtirilgan aksiyalarning bir qismini sotib olish va ushbu aksiyalarning umumiy sonini kamaytirish yo'li bilan, shuningdek ularni ustav kapitalini kamaytirish va keyinchalik Bank Kuzatuv kengashi qarori bilan belgilangan tartibda qayta sotish maqsadida sotib olishga haqli.

Bank o'z aksiyalarini sotib olish uchun Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Bank tomonidan sotib olinadigan o'z aksiyalarining miqdori Bank ustav kapitalining 10 (o'n) foizidan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Aksiyalarni sotib olish to'g'risidagi qarorda sotib olinadigan aksiyalarning turlari, Bank oladigan har bir turdagi aksiyalar soni, sotib olish narxi, aksiyalarning narxini to'lash shakli va muddati belgilab qo'yiladi.

Bank aksiyalarini sotib olish paytida ular uchun to'lov pul mablag'lari bilan amalga oshiriladi.

Bank tomonidan oddiy aksiyalarni sotib olish narxi ularning bozor qiymatiga muvofiq

belgilanadi. Bank tasarrufiga o'tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi, ovozlarni sanab chiqishda hisobga olinmaydi, ular bo'yicha dividendlar hisoblab chiqilmaydi.

Keyinchalik qayta sotish maqsadida Bank tasarrufiga o'tgan aksiyalar Bank tasarrufiga o'tgan paytdan e'tiboran 1 (bir) yildan kechiktirmay sotilishi kerak, aks holda Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi Bankning ustav kapitalini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim. Ko'rsatilgan muddatda sotilmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak.

3.8. Zaxira fondi va boshqa fondlar Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi qarori bilan tashkil etiladi va shakllantiriladi.

3.9. Zaxira fondi Bank ustav kapitalining 15 (o'n besh) foizidan kam bo'lmagan miqdorda har yili sof foydadan ajratiladigan mablag'lar hisobiga shakllantirilib boriladi. Zaxira fondiga har yillik ajratma miqdori sof foydaning kamida 5 (besh) foizini tashkil etadi.

3.10. Bankning zaxira fondi ko'rilgan zararni qoplash, Bank obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Bankning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi. Zaxira fondidan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin emas.

IV. BANK HISOBOTLARINI TUZISH VA SOF FOYDANI TAQSIMLASH

4.1. Bank O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro standartlarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan tartibda buxgalteriya hisobotini yuritadi va moliyaviy hisobotni taqdim etadi.

4.2. Bankning moliyaviy yil hisobotlari belgilangan tartibda mustaqil auditorning xulosasi asosida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

4.3. Bankning moliyaviy yili 1 yanvardan boshlanadi va 31-dekabrda tugaydi.

4.4. Bankning sof foydasi uning tasarrufida qoladi hamda aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bo'yicha Bankning zaxira fondini va boshqa fondlarini shakllantirishda foydalaniladi, aksiyadorlar o'rtasida dividendlar ko'rinishida taqsimlanadi va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ushbu Ustavda ko'zda tutilgan maqsadlarga yo'naltiriladi.

4.5. Boshqa mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, Bankning zaxira fondi Bankning zararlari o'rnini qoplash, Bankning korporativ obligatsiyalarini muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash va Bankning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo'ljallanadi.

4.6. Aksiyalarning har bir turi bo'yicha dividendlar (yilning birinchi choragi, yarim yilligi, to'qqiz oyligi, yilligi bo'yicha) to'lash, dividendning miqdori hamda uni to'lash shakli va tartibi to'g'risidagi qaror Bank Kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi. Dividendlarning miqdori Bank Kuzatuv kengashi tavsiya etgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

4.7. Aksiyadorlarga dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan Bank aksiyadorlarining reyestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

4.8. Egasining nomi yozilgan imtiyozli aksiyalar egalari Bank foyda ko'rish-ko'rmasligidan qat'iy nazar aksiyaning nominal qiymatiga nisbatan 40 (qirq) foiz miqdorida imtiyozli tarzda dividend olish huquqiga ega.

4.9. Qonunchilikda belgilangan hollarda sof foydani taqsimlanishi cheklanadi.

4.10. Qonunchilikda belgilangan hollarda foydani taqsimlash uchun Markaziy bankning roziligini olishi kerak bo'lganda, sof foyda rozilik olingandan so'ng taqsimlanadi.

4.11. Qonunchilikda belgilangan hollarda dividend olishi cheklangan aksiyadorning dividendi to'lab berilmaydi.

V. AKSIYADORLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1. Bankning aksiyadorlari quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Aksiyadorlar reyestriga kiritilish va o'zi haqida depo hisobvarag'idan ko'chirma olish;

5.1.2. Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish va olingan dividendni erkin tasarruf etish;

5.1.3. aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ovoz berish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;

5.1.4. Bankning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

5.1.5. qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

5.1.6. o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

5.1.7. qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish va (yoki) foydaning bir qismini yo'qotish ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchilikni sug'urtalash;

5.1.8. aksiyadorlar umumiy yig'ilishida o'z vakili orqali ishtirok etish, o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirish yoki unda shaxsan ishtirok etish;

5.1.9. Bank tugatilgan taqdirda aksiyadorga tegishli ulushga mos ravishda mol-mulkning bir qismini olish;

5.1.10. aksiyadorlarga yetkazilgan zararining o'рни qoplanishini qonunchilik bilan belgilangan tartibda talab qilish.

5.2. Aksiyadorlar ushbu Ustavda va amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham egalar.

5.3. Qonunchilikda belgilangan hollarda Bank aksiyadorlarining huquqlari cheklanishi mumkin.

5.4. Bankning barcha aksiyalari egasining nomi yozilgan aksiyalardir. Bankning har bir oddiy aksiyasi uning egasi bo'lmish aksiyadorga bir xil huquqlar beradi. Oddiy aksiyalarning egalari aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin.

5.5. Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 1 (bir) foizining egasi bo'lgan aksiyador Bank Kuzatuv kengashi majlisining chaqirilishini talab qilish hamda kun tartibi, foydaning taqsimlanishi, Bank Kuzatuv kengashi a'zoligiga nomzodlar bo'yicha takliflarni kiritish huquqiga ega, shuningdek, nomzodlarni Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi o'tkazilishidan avval almashtirishi mumkin.

5.6. Bank tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli ravishda olish

huquqiga ega. Aksiyador, shu jumladan, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega.

5.7. Bank aksiyadorlari hujjatlarni noqonuniy talab qilish va maxfiy ma'lumotdan, tijorat siridan foydalanish yo'li bilan Bankning boshqaruv organlari faoliyatiga to'sqinlik qilishi mumkin emas.

5.8. Bankning imtiyozli aksiyalarining egalari bo'lmish aksiyadorlar, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida quyidagi masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega bo'ladilar:

5.8.1. Bankni tugatish, qayta tashkil etish (qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish, o'zgartirish) to'g'risidagi masalalar ko'rilganda;

5.8.2. Bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha to'lanadigan dividendlar miqdorini kamaytirish masalalari ko'rilganda.

5.9. Bankning imtiyozli aksiyalari ularning egalari bo'lgan aksiyadorga bir xil hajmda huquqlar beradi va oddiy aksiyalar bilan bir xil nominal qiymatga ega bo'ladi. Imtiyozli aksiya egalari Bankni tugatish paytida imtiyozli aksiyalarning nominal qiymatiga nisbatan ushbu Ustavda belgilab qo'yilgan dividendlar foizini va ulush qilib qo'yilgan mablag'larini nominal qiymatidan kam bo'lmagan miqdorda tugatilish qiymatida olish huquqiga ega.

5.10. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining ellik foizidan ortig'iga egalik qiluvchi yoxud ovoz beruvchi aksiyalari miqdori Bankning boshqa har bir aksiyadori ulushiga nisbatan ko'p bo'lgan hamda ovozi qaror natijasiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan aksiyador majoritar aksiyador deb e'tirof etiladi.

5.11. Bankning aksiyadorlari quyidagi majburiyatlarga ega:

5.11.1. Bankning konfidensial ma'lumotlarini oshkor qilmaslik;

5.11.2. Bank o'z faoliyatini amalga oshirish uchun qonunchilikda belgilangan hamda nazorat qiluvchi (tartibga soluvchi) davlat organi talablarini bajarish uchun zarur ma'lumotlarni (axborotlarni) Bankka 1 (bir) ish kuni davomida taqdim etish;

5.11.3. qonunchilik va Bankning ichki qoidalari hujjatlarida belgilangan holatlar haqida Bankni 1 (bir) ish kuni davomida xabardor etish;

5.11.4. qonunchilik talablariga muvofiqlikni ta'minlash uchun Bank tomonidan so'rab olinadigan axborotni 1 (bir) ish kuni davomida taqdim etish;

5.11.5. Agar majoritar aksiyadorga qarorlar Bankning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga zarar keltirishi oldindan ayon bo'lsa, u mazkur qarorlarni shaxsiy manfaatlarini hisobga olib qabul qilmasligi, Bank boshqaruv organlarining yig'ilishi kun tartibiga Bankning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga mos kelmaydigan masalalarni yoki hal etilishi bankning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga zarar yetkazishi oldindan ma'lum bo'lgan masalalarni kiritmasligi shart.

5.11.6. ushbu Ustavda va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar bajarish.

5.11.7. Bankni tashkil etishda yoki Bankning ustav kapitalida chet el banki ishtirok etganda qonunchilikda ko'rsatilgan hujjatlar, qonun va qonun osti hujjatlaridan tashqari Markaziy bank tomonidan qo'shimcha ravishda so'ralgan hujjatlarni taqdim etish.

VI. BANK BOSHQARUV ORGANLARI

6.1. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, Bankning Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi Bankning boshqaruv organlaridir.

6.2. Bank Kuzatuv kengashining va Boshqaruvining vakolatlari ijro etish uchun uchinchi shaxslarga o'tkazilishi mumkin emas, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

6.3. Bank Kuzatuv kengashining va Boshqaruvining a'zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlari benuqson ishchanlik obro'siga, bank tavakkalchiliklarining samarali boshqarilishini, o'z vakolatlari doirasida asosli qarorlar qabul qilinishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tajribaga, bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

6.4. Bank Bankning Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolari, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlari banklar va bank faoliyati to'g'risidagi qonunchilik talablariga doimo muvofiq bo'lishini ta'minlaydi.

6.5. Markaziy bank Bank Kuzatuv kengashining va Boshqaruvning a'zolariga hamda muhim ahamiyatga ega xodimlar lavozimlariga ko'rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin kelishib oladi. Agar muhim ahamiyatga ega xodimlarni obyektiv sabablarga ko'ra oldindan kelishib olishning imkoni bo'lmasa, Bank keyinchalik rozilik olish uchun so'rovnoma yuboradi.

6.6. Bank Boshqaruvi a'zolari va muhim ahamiyatga ega xodimlari ish beruvchining roziligi bilan boshqa tashkilotlarda o'rindoshlik asosida ishlashi mumkin, bundan ularning boshqa banklar va tashkilotlarda ishga joylashuvi manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan hollar mustasno.

6.7. Bank Kuzatuv kengashining va Boshqaruvining a'zolarini, shuningdek muhim ahamiyatga ega xodimlarni baholash shartlari, baholash uchun zarur hujjatlar, malaka talablariga muvofiqlik mezonlari, shuningdek ularni kelishib olish tartibi Markaziy bank tomonidan belgilanadi.

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi

6.8. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi (bundan buyon matnda "Umumiy yig'ilish" deb yuritiladi) Bankning yuqori boshqaruv organidir. Umumiy yig'ilish yillik yig'ilish bo'lishi va navbatdan tashqari tartibda o'tkazilishi mumkin.

6.9. Yillik Umumiy yig'ilishlar moliya yili tugaganidan keyin 6 (olti) oydan kech bo'lmagan muddatda o'tkaziladi. Yillik Umumiy yig'ilishda majburiy tartibda Bankning yillik hisobotlari, buxgalteriya balanslari, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotlari, foyda va zararlarni taqsimlash hamda Bank Kuzatuv kengashi kiritgan boshqa masalalar ko'rib chiqiladi. Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana va uni o'tkazish tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallar (axborotlar) ro'yxatini Bank Kuzatuv kengashi belgilaydi.

6.10. Hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiz ovoz beruvchi aksiyalarning egasi bo'lgan aksiyadorlar (aksiyador), moliyaviy yil tugaganidan keyin 45 (qirq besh) kalendar kundan kech bo'lmagan muddatda yillik Umumiy yig'ilishning kun tartibiga takliflarni kiritish hamda Bank Kuzatuv kengashiga tegishli organning miqdoriy tarkibidan ortiq bo'lmagan miqdorda nomzodlarni ko'rsatish huquqiga ega.

6.11. Navbatdan tashqari yig'ilishlar Bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra

uning o'z tashabbusi asosida, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 (besh) foiziga ega bo'lgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabi bo'yicha o'tkaziladi.

6.12. Umumiy yig'ilish uning kun tartibiga kiritilmagan masalalarni ko'rib chiqish huquqiga ega emas.

6.13. Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sanadan 3 (uch) ish kuni avval shakllantirilgan Bank aksiyadorlari reyestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

6.14. Umumiy yig'ilish o'tkazish to'g'risidagi xabar Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sanadan kamida 21 (yigirma bir) kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan 30 (o'ttiz) kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

6.15. Umumiy yig'ilishning qarorlari, shuningdek ovoz berish yakunlari to'g'risida axborot Umumiy yig'ilish yopilganidan so'ng ma'lum qilinadi hamda Bankning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalari orqali e'lon qilinadi.

6.16. Umumiy yig'ilishning vakolatlariga quyidagilar kiradi:

6.16.1. Bank Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Bankning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash;

6.16.2. Bankni qayta tashkil etish yoki tugatish, tugatuvchini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

6.16.3. Bank Kuzatuv kengashining vakolatiga kiradigan masalalarga doir hisobotlarni, shu jumladan, Bankni boshqarish yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishiga doir hisobotlarini eshitish;

6.16.4. Bank Kuzatuv kengashining va minoritar aksiyadorlar qo'mitasining son tarkibini belgilash, ularning a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatish;

6.16.5. e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;

6.16.6. Bankning ustav kapitalini ko'paytirish;

6.16.7. Bankning ustav kapitalini kamaytirish;

6.16.8. o'z aksiyalarini qayta sotib olish;

6.16.9. Bank Boshqaruvi Raisi va a'zolariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarning eng yuqori miqdorini belgilash hamda Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash, ularga o'zgartirish kiritish masalalari bo'yicha Kuzatuv kengashi tomonidan ma'qullangandan so'ng qaror qabul qilish;

6.16.10.3 (uch) a'zodan iborat Minoritar aksiyadorlar qo'mitasini tashkil etish;

6.16.11. Bankning tashqi auditorini tasdiqlash va uning xizmatiga to'lanadigan haq miqdori chegarasini belgilash;

6.16.12. Bankning yillik hisobotlarini, buxgalteriya balanslarini, foyda va zararlari hisobvarag'ini tasdiqlash, uning foyda va zararlari taqsimlash;

6.16.13. Bankning aksiyalarini va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni sotib olishda aksiyadorning imtiyozli huquqini qo'llamaslik to'g'risida qaror qabul qilish;

6.16.14. Bankning Umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash;

6.16.15.aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

6.16.16.kreditlar berilishi, aktivlar va passivlarni boshqarish, investitsiyalarni amalga oshirish va Bank mijozlariga yangi turdagi xizmatlar ko'rsatish sohasidagi siyosatlarini asosiy yo'nalishlarini belgilash;

6.16.17.Bankning "Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi, "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi, "Boshqaruv to'g'risida"gi, "Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar to'g'risida"gi Nizomlarini va Bank faoliyatiga doir boshqa ichki qoidalarini hujjatlarini tasdiqlash;

6.16.18.qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlar tuzish;

6.16.19.bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorining 50 (ellik) foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulkni sotib olish va begonalashtirish bilan bog'liq bo'lgan yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

6.16.20.balans qiymati yoki sotib olish qiymati bitim tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan 50 (ellik) foizigacha qiymatini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror Bank Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinmagan bo'lsa va Bank Kuzatuv kengashining qaroriga binoan Umumiy yig'ilishning qarori qabul qilinishi uchun berilgan bo'lsa, ushbu yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilish;

6.16.21.Bankning rivojlanish strategiyasini tasdiqlash;

6.16.22.Bank tomonidan xayriya (homiylilik) yoki bepul yordam ko'rsatilishining chegarasini belgilash;

6.16.23.amaldagi qonunchilikda va ushbu Ustavda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

6.17. Umumiy yig'ilishning vakolatiga kiritilgan masalalarni hal qilish Bank Boshqaruviga berilishi mumkin emas.

6.18. Umumiy yig'ilishining vakolatiga kiritilgan masalalarni hal qilish Bank Kuzatuv kengashiga berilishi mumkin emas, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

6.19. Agar, Umumiy yig'ilishda ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish tamom bo'lgan vaqtga kelib, Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 (ellik) foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, Umumiy yig'ilish vakolatli (kvorum to'plagan) deb hisoblanadi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, takroriy Umumiy yig'ilishni o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Takroriy Umumiy yig'ilishni o'tkazishda kun tartibiga o'zgartirishlar kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

6.20. O'tkazilmay qolgan Umumiy yig'ilish o'rniga takroriy chaqirilgan Umumiy yig'ilishda ishtirok etuvchilarni ro'yxatga olish tugagan paytga kelib, Bankning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarning jami 40 (qirq) foizidan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatga olingan bo'lsa, bu umumiy yig'ilish vakolatli deb hisoblanadi.

6.21. Umumiy yig'ilish o'z faoliyatini Bankning "Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi to'g'risida"gi Nizomi asosida olib boradi, ushbu Nizom, shuningdek kun tartibidagi masalalar yuzasidan ovoz berish va qarorlar qabul qilish tartibini belgilab beradi.

6.22. Qonun hujjatlariga muvofiq aksiyador Umumiy yig'ilishda ovoz berishga, navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirishni va o'tkazishni talab qilishga, kun tartibiga masalalar kiritishga, Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zoliciga nomzodlar ko'rsatishga, shuningdek Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish huquqi cheklangan taqdirda yuqoridagi normalar amal qilmaydi.

6.23. Aksiyador Umumiy yig'ilishda ovoz berishga, navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishni chaqirishni va o'tkazishni talab qilishga, kun tartibiga masalalar kiritishga, Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zoliciga nomzodlar ko'rsatishga, shuningdek Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish huquqi cheklanmaganligini yoki cheklov bekor qilinganligini isbotlashi shart.

Bank Kuzatuv kengashi

6.24. Bankning Kuzatuv kengashi Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman Bankning faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgardir.

6.25. Bank Kuzatuv kengashi 11 (o'n bir) nafar a'zodan iborat bo'ladi. Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchiligi Bankka aloqador shaxslar bo'lmashligi kerak, bundan ularning Kuzatuv kengashidagi a'zolicigi mustasno. Bank Kuzatuv kengashi ushbu Ustavda nazarda tutilgan tartibda Umumiy yig'ilish tomonidan 3 (uch) yillik muddatga saylanadilar. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

6.26. Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga kamida 1 (bir) nafar mustaqil a'zo kiritilishi kerak. Bunda Kuzatuv kengashining mustaqil a'zoliciga nomzodlar Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan, qoida tariqasida, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi ko'rib chiqishi uchun tanlov asosida ko'rsatiladi.

6.27. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarini saylash kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi.

6.28. Bank Kuzatuv kengashining Raisi Bank Kuzatuv kengashining a'zolari orasidan ko'pchilik ovoz bilan saylanadi. Bank Kuzatuv kengashi Raisining o'rinbosari ham Bank Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra shu tartibda saylanishi mumkin.

6.29. Bank Boshqaruvining Raisi va Bank Boshqaruvining a'zolari Bank Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas. Bankda mehnat shartnomasi asosida ishlaydigan shaxslar Bank Kuzatuv kengashining a'zolari bo'lishi mumkin emas. Bank Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan marta qayta saylanishlari mumkin.

6.30. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishida masalalarni hal qilishda Kuzatuv kengashning har bir a'zosi 1 (bir) ovozga ega bo'ladi. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum Bank Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolari sonining kamida 75 (yetmish besh) foizini tashkil qilishi kerak.

6.31. Bank Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Bank Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishga yo'l qo'yilmaydi.

6.32. Bank Kuzatuv kengashining yig'ilishi Bank Kuzatuv kengashining Raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Bank Kuzatuv kengashining a'zolari, Bank Boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Bankning Ichki audit xizmati rahbari, Bankning tashqi auditori va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa shaxslarning talabi bilan chaqiriladi.

6.33. Bank Kuzatuv kengashi quyidagi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilishda vakolatlarga ega:

6.33.1. Bank faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

6.33.2. yillik va navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishlarni chaqirish, Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

6.33.3. Umumiy yig'ilishning kun tartibini tayyorlash;

6.33.4. Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Bank aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

6.33.5. Bank Ustaviga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish yoki Bankning yangi tahrirdagi Ustavini tasdiqlash to'g'risidagi masalalarni ko'rib chiqish uchun Umumiy yig'ilishga kiritish;

6.33.6. auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

6.33.7. aksiyador (aksiyadorlar) tomonidan kiritilgan masalalarni Umumiy yig'ilishning kun tartibiga kiritish, hamda Bank Kuzatuv kengashini, Minoritar aksiyadorlarning qo'mitasini saylash uchun ovoz beriladigan nomzodlarning ro'yxatiga nomzodlarni kiritish;

6.33.8. mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

6.33.9. Bankning yillik biznes-rejasini tasdiqlash va uning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

6.33.10. Bankning rivojlanish strategiyasini belgilash, strategiyaning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish va uni har yili dolzarblashtirish;

6.33.11. Bankning Korporativ boshqaruv xizmati xodimlarini tayinlash, Korporativ boshqaruv xizmati faoliyatiga oid ichki qoidalarini hujjatlarini tasdiqlash hamda ushbu xizmat faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish;

6.33.12. Bankning Ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, Ichki audit xizmati bilan bog'liq ichki qoidalarini hujjatlarini tasdiqlash hamda Ichki audit xizmatining faoliyati ustidan nazorat qilish;

6.33.13. Bankda tavakkalchiliklarni boshqarish tizimining tashkil etilishining asosiy tamoyillarini va yondashuvlarini belgilash;

6.33.14. Bank Boshqaruvining faoliyatiga daxldor bo'lgan har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Bank Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Bank Boshqaruvidan ularni olish. Olingan hujjatlardan Bank Kuzatuv kengashi va uning a'zolari faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

6.33.15. Bank Boshqaruvi Raisini saylash (tayinlash), uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

6.33.16. Bank Boshqaruvining a'zolarini Boshqaruv Raisining taqdimnomasi asosida saylash (tayinlash) va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Bank Boshqaruvining faoliyati ustidan nazorat qilish;

6.33.17. Bank Boshqaruvi Raisi va a'zolariga to'lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarning eng yuqori miqdorini belgilash, Bank Boshqaruvini rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va joriy qilish hamda Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash,

ularga o'zgartirish kiritish masalalarini ma'qullab, aksiyadorlar umumiy yig'ilishiga kiritish;

6.33.18. Bankning kadrlar siyosatini belgilash, Bankning tarkibiy bo'linmalar rahbarlari, HKXKM/KXKMLari direktorlari hamda ularning bosh buxgalterlarini tasdiqlash, ularning o'z vazifalarini bajarishi ustidan nazorat qilish;

6.33.19. Bankning ish haqini to'lash sohasidagi siyosatini amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish, shu jumladan Bankning tarkibiy bo'linma rahbarlari, HKXKM/KXKMLari direktorlari hamda ularning bosh buxgalterlarining ish haqi miqdorini monitoring qilish;

6.33.20. Bank Kuzatuv kengashining a'zolariga haq to'lash va (yoki) xarajatlari qoplanishi (kompensatsiyalar) bo'yicha Bankning siyosatini belgilash;

6.33.21. aksiyalar bo'yicha dividendlar miqdori va ularni to'lash tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

6.33.22. Bankning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish bo'yicha qaror qabul qilish;

6.33.23. Bank Boshqaruvining faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash, shuningdek, Bank Boshqaruvi Raisi va uning o'rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni tasdiqlash;

6.33.24. Bank HKXKM/KXKMLarini va vakolatxonalarini, shu'ba korxonalarini tashkil etish, tugatish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

6.33.25. balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizidan 50 (ellik) foizigacha miqdorini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror Bank Kuzatuv kengashi tomonidan bir ovozdan qabul qilinmagan holda, uni Umumiy yig'ilishning hukmiga havola etish to'g'risida qaror qabul qilish;

6.33.26. tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlarni tuzish;

6.33.27. Bankning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlar yuzasidan qarorlar qabul qilish;

6.33.28. Bankning ko'chmas mulkini begonalashtirish yuzasidan bitimlarni ma'qullash (auksionda sotilmasdan qarzdorliklarni so'ndirish evaziga bank balansiga olingan ko'chmas mulklar bundan mustasno)

6.33.29. amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish;

6.33.30. Bankning asosiy faoliyat turlari yuzasidan Bank siyosatini tasdiqlash, Bank siyosatlarining iqtisodiy sharoitlarga, Bankning holatiga, amaldagi qonun va qoidalarga muvofiqligi ustidan nazorat qilish;

6.33.31. Bankda korporativ boshqaruv tizimini tashkil etish va korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish, Bankda korporativ boshqaruvning amaliyotini nazorat qilish;

6.33.32. yillik hisobotlarni, foyda va zararlar hisobvarag'ini ko'rib chiqish va ularni umumiy yig'ilishga tasdiqlash uchun kiritish;

6.33.33. har chorakda Bank Boshqaruvi Raisining, Ichki auditi xizmati hamda Komplaens-nazorat boshqarmasi rahbarining Bank faoliyati to'g'risidagi hisobotlarini tinglash;

6.33.34. Bankning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish;

6.33.35. Bank Ustaviga Bankning ustav kapitalini qo'shimcha aksiyalarni

joylashtirish yo'li bilan ko'paytirish hamda Bankning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

6.33.36. aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;

6.33.37. Bank tomonidan korporativ obligatsiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

6.33.38. depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va ularni muomalada bo'lish shartlarini tasdiqlash, hosilaviy qimmatli qog'ozlar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

6.33.39. Bankning korporativ obligatsiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

6.33.40. Umumiy yig'ilishi bilan belgilangan chegaralar ichida xayriya (homiylilik) yoki bepul yordamning ko'rsatilishi tartibini, shartlarini belgilash;

6.33.41. minoritar aksiyadorlar qo'mitasining Bank hisobidan ta'minoti uchun xarajatlarini tasdiqlash (minoritar aksiyadorlar qo'mitasi tuzilgan holda);

6.33.42. strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarililigini lozim darajada saqlab turish siyosatini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

6.33.43. aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo'yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek Bankning kapital va umumiy zaxiralarning yetarli darajada saqlab turilishini ta'minlash;

6.33.44. manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va uni bartaraf etish tartibini tasdiqlash;

6.33.45. Bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;

6.33.46. Bankning boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirish;

6.33.47. Bankning qabul qilingan biznes-rejasi bajarilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek har chorakda Bankning faoliyati natijalari to'g'risida Bank Boshqaruvining hisobotini eshitish;

6.33.48. Bankning Ichki audit xizmati faoliyatini tashkil etish, shuningdek Bank Ichki audit xizmatining choraklik hisobotlari asosida Bank Boshqaruvi tomonidan Bank strategiyalari va siyosatlariga rioya etilishini baholashdan o'tkazish;

6.33.49. Bank Boshqaruvi a'zolari tomonidan taqdim etilgan axborotni, takliflarni va tushuntirishlarni o'rganish, muhokama qilish hamda ular bo'yicha bahslashish;

6.33.50. Bank faoliyatini boshqarish tizimi samaradorligini, shu jumladan bank boshqaruvi prinsiplari monitoringini va ularni davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko'rish;

6.33.51. 1 (bir) yilda kamida 1 (bir) marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to'g'risida Umumiy yig'ilishiga hisobot taqdim etish;

6.33.52. yillik moliyaviy hisobotlarni tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta'minlash;

6.33.53. Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta'minlash.

6.33.54. Bank Kuzatuv kengashining vakolatlariga ushbu Ustavga va amaldagi

qonunchilikka muvofiq kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish. Kuzatuv kengashi qoshidagi qo'mitalar faoliyatini tashkil etish, ularning choraklik hisobotlarini tinglash.

6.34. Bank Kuzatuv kengashining vakolatlariga kiritilgan masalalarni hal qilish Bank Boshqaruviga berilishi mumkin emas.

6.35. Quyidagilar Bank Kuzatuv kengashining majburiyatlari hisoblanadi:

6.35.1. o'z vakolatlarini Bank aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab amalga oshirish;

6.35.2. Bankka oqilona rahbarlik qilishni ta'minlash;

6.35.3. Bank faoliyati, kreditlarning to'g'ri berilishi va mablag'larning investitsiyaga yo'naltirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish (omonatchilar, kreditorlar va aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish maqsadida).

6.36. Bank Kuzatuv kengashining Raisi uning ishini tashkil etadi, Bank Kuzatuv kengashining majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlisda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, umumiy yig'ilishda raislik qiladi. Bank Kuzatuv kengashining Raisi vaqtincha bo'lmagan paytida uning vazifasini Bank Kuzatuv kengashi Raisining o'rinbosari yoki a'zolaridan biri bajarib turadi.

6.37. Bank Kuzatuv kengashining a'zolari Bank faoliyatiga doir qarorlar qabul qilishda xolisona tarzda ish tutishlari shart. Ular o'zlariga berilgan imkoniyatlardan ushbu Ustav qoidalariga zid ravishda yoki Bankning mulkiy yoki nomulkiy manfaatlariga zid ravishda foydalanishlari taqiqlanadi. Bank Kuzatuv kengashining vazifalari, ish faoliyatining tashkil etilishi, uni saylash tartibi va Bank Kuzatuv kengashining ishlash tartibi "Kuzatuv kengashi to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.

Bank Boshqaruvi

6.38. Bank Boshqaruvi Bankni boshqarishning ijro etuvchi organi bo'lib, u Bankning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan faoliyat strategiyasi va uni boshqarish tizimiga muvofiq Bankning faoliyatiga operativ boshqaruvni amalga oshiradi hamda Bankning faoliyati uchun javobgarlikni to'liq zimmasiga oladi.

6.39. Bank Boshqaruvining vazifalari quyidagilardan iborat:

6.39.1. Bank faoliyatini tashkil etish va unga tezkor rahbarlik qilishni amalga oshirish, Bank Ustavida ko'rsatilgan maqsadlar va vazifalarning bajarilishini ta'minlash;

6.39.2. Bank mijozlariga ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha foiz stavkalarini va vositachilik haqi miqdorini ishlab chiqish va belgilash;

6.39.3. Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki belgilagan iqtisodiy normativlarga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida majburiy zaxiralarni shakllantirish yuzasidan talablarga rioya qilinishini ta'minlash;

6.39.4. Bankning kapitali va likvidli resurslari yetarli darajada bo'lishini, ularni tasniflash asosida shubhali va bekor turgan aktivlarga qarshi zaxiralar yaratilishini ta'minlash, zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida Bank aktivlarining turlarini ko'paytirish;

6.39.5. qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va xalqaro standartlarga muvofiq Bankning buxgalterlik hisobi va hisoboti yuritilishini tashkil etish;

6.39.6. Bankning shu'ba korxonalari, va boshqa tarkibiy bo'linmalariga rahbarlik qilish, ular faoliyatini barcha yo'nalishlar bo'yicha nazorat qilish, Bank uchun kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini tashkil qilish;

6.39.7. Bank Umumiy yig'ilishi va Bank Kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini

ta'minlash;

6.39.8. Bank aksiyadorlari va Bank Kuzatuv kengashining birinchi talabiga binoan moliyaviy hisobotni va Bank faoliyati to'g'risidagi boshqa axborotlarni taqdim etish;

6.39.9. har chorak yakunlari bo'yicha bank Boshqaruvi Raisi va uning o'rinbosarlari faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) hamda belgilangan tartibda Bank faoliyatining moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotni Kuzatuv Kengashiga taqdim etish;

6.39.10. o'zining vakolatlari doirasida, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tayyorlash masalalarini hal qilish, Bankning rahbarlik lavozimlariga nomzodlarni Bank Kuzatuv kengashiga tasdiqlash uchun kiritish;

6.39.11. Bankning shtat jadvali bilan bog'liq masalalarni hal qilish;

6.39.12. o'zining vakolatlari doirasida Bankning normal faoliyat ko'rsatishi uchun lozim bo'lgan mol-mulkni sotib olish yoki sotish masalasini hal qilish;

6.39.13. strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshirishi;

6.39.14. Bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni Bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlashi;

6.39.15. Bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi;

6.39.16. Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek Bank Umumiy yig'ilishiga va Kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, Bankka nisbatan qo'llanilgan choralar hamda sanksiyalar to'g'risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etishi;

6.39.17. ushbu Ustavda hamda banklar va bank faoliyati oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.

6.40. Bank Boshqaruvining vakolatlariga, Umumiy yig'ilishning vakolatlari va Bank Kuzatuv kengashi vakolatlariga kiritilgan masalalardan tashqari barcha masalalarni hal qilish kiritilgan.

6.41. Bank Boshqaruvi Bank Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun Bankni rivojlantirish strategiyasi, Bankning tashkiliy boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, Bank Boshqaruvi vakolatiga taalluqli boshqa masalalar bo'yicha takliflar kiritadi. Bank Boshqaruvi Bank faoliyati uchun muhim bo'lgan har qanday masalani Bank Kuzatuv kengashining muhokamasiga kiritishi mumkin.

6.42. Bank boshqaruvi 7 (yetti) nafar a'zodan iborat bo'lib, Bank Boshqaruvining a'zolari Boshqaruv Raisining taqdimnomasi asosida Bank Kuzatuv kengashi huzuridagi Kadrlar va mukofotlar qo'mitasi qarori bilan tasdiqlanadi.

6.43. Bank Boshqaruvi yig'ilishi zaruriyat bo'yicha lekin oyiga kamida 1 (bir) marta chaqirilishi lozim.

6.44. Bank Boshqaruvining yig'ilishi uning 60 (oltmish) foiz amaldagi a'zolari ishtirok etgan holda qaror qabul qilish uchun vakolatli deb hisoblanadi.

6.45. Boshqaruv qarorlari ovozlarning ko'pchiligi bilan qabul qilinadi.

6.46. Bank Boshqaruvi quyidagi huquqlarga ega:

6.46.1. o'z vakolat doirasida Bankning ichki qoidalari hujjatlarini ko'rib chiqish,

tasdiqlash, tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash, barcha HKXKM/KXKMLari, tarkibiy bo'linmalari va xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan qarorlarni chiqarish;

6.46.2. vazirliklar, idoralar, jamg'armalar, jamoat va tijorat tashkilotlari va boshqa yuridik va jismoniy shaxslar bilan, xalqaro tashkilotlar va ularning vakillari bilan, chet el banklari va ularning vakillari bilan muzokaralarni olib borish;

6.46.3. o'zining vakolatlari doirasida Bank tomonidan kredit ajratilishi, investitsiyalar kiritilishi yoki jalb qilinishiga doir bitimlarni tuzish;

6.46.4. Bankning Kredit qo'mitasi, kredit komissiyalari va boshqa ishchi guruhlarining tarkibini shakllantirish bilan bog'liq tadbirlarni amalga oshirish;

6.46.5. Bankning rahbar xodimlarini tayinlash, ular uchun va boshqa xodimlari uchun malaka talablari o'rnatish, ularni tanlash, joy-joyiga qo'yish, rag'batlantirish yoki intizomiy jazoga tortish yuzasidan qarorlar qabul qilish.

6.47. Bank Boshqaruvining boshqa vazifalari, huquqlari va majburiyatlari Umumiy yig'ilish tomonidan tasdiqlanadigan "Boshqaruvi to'g'risida"gi Nizomda belgilanadi.

6.48. Bank Boshqaruviga Boshqaruv Raisi rahbarlik qiladi. Boshqaruv Raisi Umumiy yig'ilish va Bank Kuzatuv kengashi oldida hisobot beradi va u Bankning joriy faoliyati natijalari uchun o'z vakolatlari doirasida javobgar bo'ladi. Boshqaruv Raisi bilan mehnat shartnomasini Bank Kuzatuv kengashining qaroriga asosan Bank nomidan Bank Kuzatuv kengashining Raisi tuzadi. Mehnat shartnomasi 3 (uch) yil muddatga tuziladi.

6.49. Boshqaruv Raisi quyidagi vakolatlarga ega:

6.49.1. o'z vakolatlari doirasida Bankning samarali va barqaror ishlashini ta'minlaydi, uning joriy faoliyatiga rahbarlik qiladi;

6.49.2. o'z vakolatlari doirasida va amaldagi qonunchilik bilan belgilangan tartibda Bank faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi, foydali va manfaatli bo'lgan iqtisodiy boshqarish usullarini qo'llaydi, Bank ishchi jamoasining istaklarini va tashabbuslarini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratib beradi;

6.49.3. Bank mulkini va mablag'larini tasarruf etadi, Bank nomidan shartnomalar, majburiyatlar va ishonchnomalarni imzolaydi;

6.49.4. O'zbekiston Respublikasidagi tijorat va davlat tashkilotlarida va boshqa davlatlarda bank faoliyati masalalari bo'yicha vakillikni amalga oshiradi;

6.49.5. Bank nomidan ishonchnomalar beradi, shartnomalarni imzolash tartibini belgilaydi;

Bankning shtat jadvalini tasdiqlaydi va shtatlar jadvaliga o'zgartirishlarni kiritadi, Bank Boshqaruvining a'zolari orasida majburiyatlarni taqsimlaydi. Shtat jadvali va tuzilgan shartnomalar asosida Bankning mansabdor shaxslarini tayinlaydi va ishdan bo'shatadi, Bank xodimlarining ish haqini belgilaydi, hamda namunali ishlagan xodimlarni taqdirlaydi, mehnat vazifalarini buzganligi uchun intizomiy jazolar qo'llaydi, Bank xodimlari bilan mehnat shartnomasini qonun hujjatlariga va mazkur Ustavga muvofiq tuzadi;

6.49.6. Boshqaruv Raisi o'rinbosarlarining, tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining javobgarlik chegaralarini belgilaydi;

6.49.7. Bankning bo'linmalari xodimlarining lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlaydi;

6.49.8. Boshqaruv Raisi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6.50. Boshqaruv Raisi ishonchnomasiz faoliyat yuritadi. Bank Boshqaruv Raisi Boshqaruv Raisining o'rinbosarlari, Boshqaruv a'zolari, bosh buxgalter, HKXKM/KXKM direktorlari va bosh buxgalterlari hamda Bankning xodimlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi.

VII. JAVOBGARLIK

7.1. Bank Kuzatuv kengashining a'zolari, Boshqaruv Raisi va boshqaruvi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda bankning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar hisoblanadi.

7.2. Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Bank Kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

7.3. Bank yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida 1 (bir) foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Bankka yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Bankning Kuzatuv kengashi a'zosi, Raisi yoki Boshqaruv a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

7.4. Sud Bankning Kuzatuv kengashi a'zosini, Boshqaruv Raisini yoki a'zosini Bankka mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, sud qaroriga ko'ra ularning vakolatlari xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallash taqiqlangan holda kamida 1 (bir) yil muddatga tugatilishi mumkin.

7.5. Bankning Kuzatuv kengashi a'zosi, Boshqaruv Raisi yoki a'zosi chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik, qonunda belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik, Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan Bank bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik, fidutsiar majburiyatlarni bajarmaslik natijasida Bankka yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi.

7.6. Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining, Boshqaruv Raisining, Boshqaruv a'zolarining fidutsiar majburiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

7.6.1. vazifa va majburiyatlarini amalga oshirishda vijdonan harakat qilib, Bank va aksiyadorlar manfaatlarini eng ko'p aks ettiruvchi usullardan foydalanishni;

7.6.2. Bank mol-mulkidan Bankning Ustaviga va ichki hujjatlariga zid ravishda va (yoki) aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va (yoki) Kuzatuv kengashining qarorlarisiz, shaxsiy manfaatlarini ko'zlab foydalanmaslikni hamda undan boshqa shaxslar tomonidan shu tarzda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslikni;

7.6.3. Bankning biznes imkoniyatlaridan yoki bank uchun manfaatli bo'lgan obyektlardan o'z vazifalarini bajarishi munosabati bilan yoki o'z mavqeyidan kelib chiqqan holda, Bankning tegishli boshqaruv organlari rozilgisiz, shaxsiy naf olish maqsadida yoki boshqa shaxslar manfaatlarini ko'zlab, shunday naf olishga ko'maklashish maqsadida foydalanmaslikni;

7.6.4. Bankning asosiy faoliyati yo'nalishlariga xos bo'lgan sohadagi tadbirkorlik faoliyatini Bankning tegishli boshqaruv organlari rozilgisiz amalga oshirmaslikni;

7.6.5. qonunchilikka, Bankning ichki hujjatlariga va shartnomaga muvofiq bank faoliyati to'g'risidagi maxfiy axborotni oshkor qilmaslikni;

7.6.6. o'z vazifalarini bajarish bilan bog'liq qarorlar qabul qilish evaziga moddiy qimmatliklar olmaslikni yoki bundan manfaatdor bo'lgan shaxslardan mulkiy manfaatdor bo'lmaslikni.

7.7. Agar Bankning ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida bankka zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda Boshqaruv Raisining yoki Boshqaruv a'zolarining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, Bankning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda Bankning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

VIII. BANK TARKIBIY BO'LINMALARI

8.1. Bank amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z HKXKM/KXKMLari, shu'ba korxonalari, vakolatxonalari va boshqa hududiy tarkibiy bo'linmalariga ega bo'lishi mumkin.

8.2. Bankning HKXKM/KXKMLari va vakolatxonalari yuridik shaxs maqomini olmagan holda o'z faoliyatini Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Nizomlar asosida amalga oshiradilar.

8.3. HKXKM/KXKMLar direktorlari va vakolatxonalarning rahbarlari Bank Boshqaruvi tomonidan tayinlanadi va Bank Kuzatuv kengashi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan kelishilgan holda tasdiqlanadi.

8.4. HKXKM/KXKMLar direktorlari va vakolatxonalarning rahbarlarining vakolatlari Bank Boshqaruvining Raisi tomonidan beriladigan ishonchnoma bilan, tegishli HKXKM/KXKM (vakolatxona) to'g'risidagi Nizom bilan va Bankning ichki qoidalari hujjatlari bilan belgilanadi.

IX. BANK FAOLIYATINI NAZORAT QILISH TARTIBI

9.1. Bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat qilish Bankning, Ichki audit xizmati, tashqi auditorlik tashkilotlari va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga muvofiq boshqa vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi.

9.2. Moliyaviy (buxgalterlik) hisobotining haqqoniyligini, uning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqligini tekshirish va tasdiqlash uchun Bank shartnoma asosida qonun hujjatlarga muvofiq auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan auditorlik tashkilotini jalb qiladi. Auditorlik tashkiloti qonun hujjatlariga, ushbu Ustavga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkilotlarini tanlash bo'yicha tanlov yakunlariga ko'ra umumiy yig'ilishga Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya qilinadi.

9.3. Bank Kuzatuv kengashi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan tartibda, Bank Boshqaruvining qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talablari asosida faoliyat yurituvchi Ichki audit xizmatini shakllantiradi. Bank Kuzatuv kengashi Ichki audit xizmatining Nizomini tasdiqlaydi.

9.4. Ichki audit xizmati Bank Boshqaruvi, Bankning vakolatxonalari, HKXKM/KXKMLari va boshqa hududiy tarkibiy bo'linmalari tomonidan qonun hujjatlariga, ta'xis hujjatlari va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma'lumotlarning to'liq hamda to'g'ri aks ettirilishi ta'minlanishini, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya

etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek bankni boshqarish yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish va bu borada monitoring olib borish orqali Bank Boshqaruvi, Bankning vakolatxonalari, HKXKM/KXKMLari va boshqa hududiy tarkibiy bo'linmalari ishini nazorat qiladi hamda baholaydi .

9.5. Aksiyadorlar o'rtasida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish choralari qonun hujjatlar va Bankning ichki qoidalari hujjatlari bilan belgilanadi.

X. BANKNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH

10.1. Bankni qayta tashkil etish Umumiy yig'ilishning qaroriga ko'ra qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida Markaziy bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi.

10.2. Bank Markaziy bankning talabiga ko'ra ham qayta tashkil etilishi mumkin.

10.3. Bankning faoliyatini tugatish va Bankni tugatish ixtiyoriy yoki majburiy shaklda amalga oshiriladi.

10.4. Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Bank qayta tashkil etiladi va tugatiladi.

XI. BANK USTAVIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

11.1. Bank Ustaviga kiritilgan va Bankning vakolatli organi tomonidan tasdiqlangan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida ro'yxatga olinadi.

11.2. Ustavga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar uchinchi shaxslar uchun davlat ro'yxatiga olingan vaqtdan e'tiboran kuchga kiradi.

11.3. Mazkur Ustav ro'yxatga olingan vaqtdan boshlab Bank Ustavining barcha avvalgi va avval ro'yxatdan o'tkazilgan tahrirlari, unga o'zgartirishlar va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.